

Oriental Journal of Education



FEATURES OF FUNERAL AND MOURNING RITES IN THE PRE-ISLAMIC PERIOD

Abdulla Djumanov*Master's student**University of Exact and Social Sciences**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: birth, marriage, death, natural death, clinical death, premature death, onset of death, cardiopulmonary, soul, eternal sleep, sleep without awakening, veiled death, afterlife, spirit butterfly.

Received: 26.04.25**Accepted:** 28.04.25**Published:** 30.04.25

Abstract: This article analyzes the features of rituals that existed before the adoption of Islam, based on information recorded in written sources, inscriptions and relevant literature, from the point of view of the history of the development of funeral rites, their specificity, theoretical foundations of ideas about death and their description in various spheres. It also presents reflections on the place of funeral rites in public life and the role of burial-related objects in people's everyday life.

ISLOMGACHA BO'LGAN DAVRDA DAFN VA MOTAM MAROSIMLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Abdulla Djumanov*Magistratura talabasi**Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tug'ilish, nikoh, o'lim, tabiiy o'lim, klinik o'lim, bevaqt o'lim, ajal yetmoq, kardipulumaner, ruh, mangu uyqu, uyg'onmas uyqu, pardali o'lim, narigi dunyo, arvoh kapalak.

Annotatsiya: Ushbu maqolada dafn marosimlarining rivojlanish tarixi, o'ziga xosligi, o'lim tushunchasining nazariy asoslari, turli sohalarda uning tavsifi, yozma manbalar, bitiklar va tegishli adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlar asosida islom dinigacha bo'lgan urf-odatlarining xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dafn marosimlarining jamiyat hayotida tutgan o'rni, dafn bilan bog'lik obyektlarning kishilar turmushidagi roli xususidagi mulohazalar berilgan.

ОСОБЕННОСТИ ПОХОРОННЫХ И ТРАУРНЫХ ОБРЯДОВ В ДОИСЛАМСКИЙ ПЕРИОД

Абдулла Джуманов

студент магистратуры

Университет точных и социальных наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рождение, брак, смерть, естественная смерть, клиническая смерть, преждевременная смерть, наступление смерти, кардиопульмональный, душа, вечный сон, сон без пробуждения, завуалированная смерть, загробный мир, дух-бабочка.

Аннотация: В данной статье проанализированы особенности обрядов, существовавших до принятия ислама, на основе информации, зафиксированной в письменных источниках, надписях и соответствующей литературе, с точки зрения истории развития похоронных обрядов, их специфики, теоретических основ представлений о смерти и их описания в различных сферах. Также представлены размышления о месте похоронных обрядов в общественной жизни и роли связанных с погребением объектов в быту людей.

Inson hayoti muhim uch bosqich orqali belgilanadi: tug'ilish, nikoh va o'lim. Bu bosqichlar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Aynan shu uch davr jamiyat va individ o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlab, ular bilan bog'liq urf-odat va marosimlar yillar davomida saqlanib kelgan. Xususan, tug'ilish va o'lim jarayonlari qadimdan eng muhim marosimlar sirasiga kirgan, chunki o'lim qadimcha dunyoqarashda bu dunyoni tark etib, boshqa bir borliqqa o'tish sifatida talqin qilingan.

O'lim bilan bog'liq e'tiqodlar, xalqona qarashlar uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllanib, an'anaviy qoliplarga tushgan. Barcha mavjudotlar hayotida abadiy davomiylik yo'q, bu olamda har bir jonli narsa o'z yakuniga yetadi. Bu borada buyuk tabib va faylasuf Abu Ali Ibn Sino shunday degan: har qanday narsaning intihosi mavjud, shuningdek, o'lim ham muqarrar bir holatdir [1, 89]. U o'zining mashhur "Tib qonunlari" asarida ta'kidlaganidek, tibbiyot san'ati har qancha rivojlangan bo'lsa ham, insonni o'limdan butunlay asrab qolishga qodir emas, u faqat tanani tashqi ofatlardan himoya qilish imkonini beradi.

Tanatalogiya, ya'ni o'limshunoslik sohasi ta'kidlaydiki, inson hayotining nihoyasi nafas olish va qon aylanishining to'xtashi bilan boshlanadi. Shu sababli o'lim jarayoni ikki muhim bosqichga ajratiladi: klinik o'lim va uning ortidan yuz beradigan biologik (yoki tabiiy) o'lim. Klinik o'limdan keyin organizm hujayralari va to'qimalarida barcha hayotiy faoliyat butunlay to'xtab, tabiiy o'lim ro'y beradi.

Xalq orasida bu jarayon "o'z ajali bilan vafot etish" deb ta'riflanadi [2, 10]. Odamlar har doim hayotning to'kis yakunini tilab, farzandlari va avlodlarining kamolini ko'rib, qarilik gashtini surib,

tabiiy o'lim bilan bu dunyoni tark etishni orzu qiladilar. Aksincha, bevaqt yoki kutilmagan o'limdan cho'chiydilar. Shu sababli xalq orasida "Nohaq tuhmatdan, bevaqt o'limdan asragin" degan duolar keng tarqalgan.

O'lim mohiyati borasida esa turlicha qarashlar mavjud: ba'zilar buni ongning butkul yo'qolishi deb tushuntirishsa, boshqalar o'limni ruhning boshqa bir mavjudlik shakliga o'tishi sifatida talqin qiladilar [3, 14].

Qadimgi davrlarda o'lim bilan bog'liq e'tiqodlar ilk diniy tasavvurlar asosida shakllangan. Unga ko'ra, jon tanani tark etganidan so'ng tananing hayoti nihoyasiga yetadi, ammo ruh o'z hayotini boshqa dunyoda davom ettiradi. Ushbu qarashlar, o'limdan qo'rquv va murdaga nisbatan ehtiyotkorlik tufayli, turli xil dafn marosimlari va vafot etganlarni eslash an'analari paydo bo'lgan.

Bugungi kunda ham ko'plab mamlakatlarda o'lim hodisasi tibbiyot, falsafa, psixologiya va antropologiya fanlari kesimida chuqur o'rganib kelinmoqda. Bu tadqiqotlarda hayot va o'lim o'rtasidagi uzviy aloqalar, o'limdan keyingi mavjudlik haqidagi tasavvurlar, insoniy shaxsiyat va o'limga bo'lgan munosabat, shuningdek, o'lim va qo'rquvning psixologik jihatlari tahlil etilmoqda.

Hayotning asl mohiyatini tushunish – insoniyat uchun har doim murakkab va chuqur falsafiy savol bo'lib qolgan. Agar insoniyat o'ziga xos barcha ruhiy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan sun'iy intellekt yoki psixologik model yarata olsa ham, u baribir hayotli mavjudot deb tan olinmasligi mumkin. Bu esa shuni anglatadiki, ong mavjudligi hayotning o'zi emas. Hayotning bu kabi sirli tabiati bizni o'lim hodisasining mazmuni ustida ham chuqur o'ylashga undaydi [4].

Insoniyat tafakkurining eng yuksak nuqtasi, ya'ni mutlaq chegarasi – bu qayta tirilishga, o'limdan so'ng yana mavjudlikka ishonchdir. Deyarli barcha dinlar va e'tiqod tizimlarida bu g'oya – ruhning boshqa jismda qayta namoyon bo'lishi yoki o'limdan so'nggi hayot haqidagi qarashlar markaziy o'rinni egallab kelgan.

Zamonaviy tibbiyotda o'lim aniq tibbiy mezonlar asosida tasdiqlanadi. Masalan, AQShda 1981-yilda Prezident farmoni asosida qabul qilingan qonunga ko'ra, yurak urishi va nafas olish butunlay to'xtagan, hamda miya faoliyati qayta tiklanmas darajada izdan chiqqan holat o'lim deb e'tirof etiladi [4].

Buyuk Britaniyada esa o'lim miya sopining faoliyatini to'xtatishi bilan bog'lanadi. Biroq bu yondashuv ham turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki miya butunlay ishlamay qolgan odam sun'iy nafas oldirish yoki yurak urishini ta'minlovchi qurilmalar orqali biologik hayot belgilari bilan "yashayotgan"dek bo'lishi mumkin.

Zardushtiylik e'tiqodida esa o'limga sabab bo'ladigan holatlar orasida turli kasalliklar, kuchdan ketish, qashshoqlik, ruhiy azoblar, seyr-jodular, hayvonlar hujumi kabi omillar tilga olinadi [5, 66].

Islomiy qarashlarda esa o'lim – taqdirning bir qismi sanaladi. Bu haqda Qur'oni Karimda ochiq bayon etilgan: "Hech bir jon, Alloh izn bermasa, o'z ajaliga yetmaydi" (Oli Imron surasi, 145-oyat),

shuningdek: “Qayerda bo‘lsangiz ham, o‘lim sizni topadi” (Niso surasi, 78-oyat). Bu oyatlar o‘limning muqarrarligini va undan qochib bo‘lmasligini ta’kidlaydi.

Islomiy an’anaviy qarashlarda insonning vafoti uning umr muddati yakuniga yetgani, ya’ni rizqi tugab, ajali bitgani bilan bog‘lanadi. Shunda jonni tanadan ajratish vazifasini jon oluvchi farishta – Hazrati Azroil (malak-ul mavt) bajaradi. Bu jarayon bilan bog‘liq xalq orasida shakllangan tasavvurlar alohida ahamiyatga ega.

Masalan, Qarshi tumani Qoratepa qishlog‘ida yashagan, 90 yoshli Jo‘ra bobo Inat o‘g‘lining so‘zlariga ko‘ra, insonning ruhi tanani tark etishda kabutar shaklida og‘iz orqali uchib chiqadi va arshi a’loda davom etuvchi hayotga yo‘l oladi. U yerda ruhni savob va mukofot kutadi. Boshqa xalqona qarashlarga ko‘ra, jon odam tanasidan qora bug‘ yoki tutun kabi chiqib ketadi, lekin bu manzarani faqat ruhiy sezgisi kuchli kishilar ko‘ra oladi [6, 24].

Mashhur o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiy esa o‘limni “uyg‘onmas uyqu” deya ta’riflagan [7, 456]. Bu fikr zahirida o‘limning abadiy osoyishtalik holati sifatida talqin qilinishi yotadi. Shu bois xalq orasida “mangu uyquga ketdi” iborasi keng tarqalgan.

O‘zbek xalq urf-odatlarida o‘lim holatining sababi va yuz berish sharoitlariga ko‘ra, unga turlicha baho beriladi. Masalan, to‘satdan sodir bo‘lgan halokatli o‘lim Allohning jazosi sifatida qabul qilinadi. Agar odam uzoq davom etgan azobli o‘lim bilan vafot etsa, bu holat uning gunohlari bilan bog‘lanadi, deb hisoblanadi. “Yomonga o‘lim yo‘q” degan ibora esa, o‘lim jarayoni yengil kechgan odamni pokiza hayot kechirgan deb e’tirof etish ifodasidir. Ayrim hollarda esa inson o‘z o‘limini oldindan tushida ko‘rishi mumkinligi haqida qarashlar mavjud.

Olim M. Payziyevaning ta’rifiga ko‘ra, o‘lim sabablari ikki asosiy turga bo‘linadi:

1. Tabiiy o‘lim – bu qarilik yoki kasallik oqibatida yuz beradi;
2. Notabiiy o‘lim – kutilmagan falokat, o‘z joniga qasd qilish yoki bevaqt vafot holatlari kabilar.

Xalq orasida turli tasodifiy holatlar – masalan, tug‘ruq jarayonida, avtohalokat yoki tabiiy ofatlar natijasida vafot etganlar haqida “yoshiga yetmadi”, “bevaqt o‘ldi”, “ajal yetdi” yoki “rizqi tugagan” kabi iboralar ishlatiladi.

Toshkent shahridagi o‘zbeklar orasida “pardali o‘lim” tushunchasi mavjud bo‘lib, bu tushuncha o‘lim to‘shagida jon bera olmay qiynalayotgan odamni tavsiflashda ishlatiladi. Bunday holatlarda o‘limi yaqinlashgan insonning yuziga oq mato yopib qo‘yish amaliyoti mavjud. Bu holatning sababini tushuntiruvchi izohlar orasida “ruh ko‘plab odamlarga tanani tark etishga uyaladi, shuning uchun uning yuziga parda tortiladi”, degan qarashlar bor [8, 249].

O‘zbeklar orasida o‘limning sabablariga oid faqat tashqi holatlar va harakatlar bilan bog‘liq emas, balki xonadonda yuz beradigan ba’zi o‘zgarishlar ham o‘limga olib kelishi mumkin, degan tushunchalar ham mavjud. Masalan, o‘rgimchak ishlari o‘limga chaqirishni anglatadi, deyishadi. Agar

o'rgimchak oziq-ovqatga tushsa, uni iste'mol qilgan kishi o'z joniga qasd qiladi, deb hisoblanadi. Boshqa bir qarashga ko'ra, supurgi yoki o'qlovni tikka qilib qo'yish oilada o'limning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Tikka qo'yilgan supurgi xonadonga g'assolni chaqiradi, tikka qo'yilgan o'qlov esa hassakashlar qo'lida hassa bo'lishini anglatadi. Bular barcha o'zbeklarga xos emas, balki ayrim hududlar va mahalliy aholi orasida uchraydigan tushunchalardir.

Xonadonda to'y va aza bir vaqtda bo'lib o'tmasligi uchun kul va axlatni birlashtirish mumkin emas deb hisoblanadi [9, 16].

Yuqoridagilarga asoslanib, o'zbeklar orasidagi o'limga doir tasavvurlarni tahlil qilganda, islomiy qarashlar va islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar o'rtasida qorishiq va uyg'unlashgan elementlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. O'lim bilan bog'liq xalq e'tiqodlarida qadimiy dinlarning ba'zi ko'rinishlari saqlanib qolgan. Ular asosan animistik tasavvurlarga asoslanadi. Jon va jismning birgalikdagi mavjudligi, jonning jismni tark etib o'lishi va u dunyoda ruh sifatida yashashiga doir qarashlar qadimdan rivojlanib kelgan. Shu sababli o'limdan keyingi hayot haqida tasavvur qilganlar ham ruhning mavjudligiga ishonadilar.

Ruh — arabcha so'z bo'lib, o'ziga xos, g'ayrioddiy kuchni ifodalaydi. Inson va hayvonlarning tanasida yashovchi, uyqu yoki o'lim vaqtida tanani tark etuvchi bir kuch sifatida qaraladi [10]. Ruhning talqini tarixan o'zgarib borgan. Yunon faylasuflari ruhni "tartibsiz materiyani shakllantiruvchi kuch" deb bilgan. O'rta asr mutafakkirlari esa ruhni tabiatdan avval mavjud bo'lgan va uni yaratuvchi kuch sifatida tushungan.

Ruh haqidagi tasavvurlar, marhumga bo'lgan munosabatni sezilarli darajada murakkablashtirgan. Kishi vafot etgach, uning tanasi yerda qolsada, ruhining yashashda davom etishi haqidagi tushunchalar yuzaga kelgan. Suv ostida, yer ostida yoki osmonda arvohtar dunyosining mavjudligi haqida fikrlar tarqalgan. Bu g'oyalar ruhlarni hurmat qilish, xotirlash va ularning g'azabidan saqlanish uchun turli marosimlar va qurbonliklar qilish zarurligini ta'kidlagan [11, 129].

Islom dinida ruhlarning mavjudligi haqida Qur'onda aniq javob berilgan. Qur'oni Karimda ruhning mohiyati haqida shunday deyilgan: "Va sendan ruh haqida so'rarlar, Sen: 'Ruh Robbimning ishidir. Sizga juda oz ilm berilgandir' deb ayt" (Isro surasi, 85-oyat) [12]. Hadislarda esa vafot etgan kishi amalga yarasha, ruhlar orasida qaysidir biriga qo'shilib, o'z oilasi va yaqinlarining holini so'rashlari yoki yaxshi ishlari uchun xursand bo'lishi, yomon ishlari uchun esa ranjishlari haqida so'z yuritiladi [12].

Markaziy Osiyo mintaqasini o'rgangan olimlardan G. Snesev o'zbeklar orasida ruh tanaga qaytmasa-da, boshqa shakllarda, masalan, qush yoki hayvon ko'rinishida bo'lib, o'z yaqinlari bilan aloqada bo'lib turadi, deb qayd etadi. Ba'zan esa ruh tirik odamlarning qiyofasida qayta ko'rinib, oilasiga qaytishi mumkin [13, 198].

S.Tokorev “narigi dunyo” haqidagi tasavvurlarga oid tahlilini keltirib, ruhlar o‘limdan keyin tiriklar dunyosida qolishi yoki o‘ziga xos boshqa dunyoga ketishi mumkinligini aytadi. Bu qarashlar totemizm bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [13, 198].

Abu Nasr Farobiy ham ruhning bir tanadan ikkinchi tanaga ko‘chishi haqidagi fikrni rad etgan va ruhning doimiy mavjudligi haqida o‘z qarashlarini bildirgan [14].

O‘rta Osiyo xalqlarida vafot etgan kishi ruhining mavjudligiga bo‘lgan ishonch ijtimoiy hodisa sifatida ahamiyatga ega. Qadimda, o‘z yaqinini yo‘qotganlar, uning ruhining tirik qolishi uchun uning jasadini uylariga yoki yaqin joyga ko‘mishgan, ba‘zan hatto oziq-ovqatlar bilan birga uni qo‘yishgan [15, 160]. Bu ruhni e‘zozlashning ifodasi bo‘lib, ajdodlar ruhining jismoniy mavjudlikdan tashqarida hayotini davom ettirishi haqidagi qarashni ko‘rsatadi [16, 23].

O‘lim haqida xalq orasidagi talqinlarga ko‘ra, inson o‘lganda uning jismiga yomon amallari va gunohlari sabab bo‘ladi, ammo uning ruhi pokdir, shu boisdan u bu dunyodan boqiy dunyoga (dor-ul fanodan, dor-ul baqoga) o‘tadi va abadiy yashaydi. Bu talqinga asosan, o‘limdan so‘ng kishi o‘z amallariga qarab ajru mukofotini oladi, ya‘ni u jannatda rohat va huzurga erishadi yoki do‘zaxdagi azoblarni boshdan kechiradi [6, 28].

Toshkent shahridagi o‘zbeklar orasida “arvoh kapalak”ni ko‘rish odati mavjud. Bunday vaziyatda “arvoh kapalak” kelgani, deb marhumni eslab, uning arvohi bizdan xabar olish uchun kelgan, degan qarashlar mavjud [17, 31]. Bu fikrga ko‘ra, marhumning arvohi saqlanadi va tiriklar uchun madadkor bo‘lib qoladi.

Qashqadaryo viloyatida yashovchi o‘zbeklar esa o‘lgan kishining ruhi o‘z dunyosida yashashda davom etishini va uning arvohi tiriklar orasida qolib, ular bilan bog‘langan bo‘lishini ta’kidlaydilar [6, 28]. Shuning uchun ular Ramazon Hayiti va Qurbon Hayiti kabi musulmon bayramlari arafasida, shuningdek juma va dushanba oqshomlarida o‘lganlar uchun duo qilib, arvohlariga bag‘ishlab chiroq yoqadilar va o‘z uylarining qibla tomoniga qo‘yib, arvohning kelishini kutadilar. Yaqinlarini yo‘lga kuzatishda esa “Ota-bobolaring arvohi yor bo‘lsin” deb duo qiladilar [18, 152].

Bu xalq fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: tiriklarning o‘liklarga g‘amxo‘rligi, bir tomondan, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish, ulardan madad so‘rash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘liklardan qo‘rqish hissidir. Bu haqda xalq maqolida: “O‘likdan emas, tirikdan qo‘rq” degan ibora mavjud bo‘lib, u ikkinchi sababni tasdiqlaydi. S. Tokarev esa o‘liklardan qo‘rqish hissi tiriklar va o‘liklar o‘rtasidagi ijtimoiy bog‘liqlikdan kelib chiqadi, deb ta’kidlaydi [13, 199]. Shuningdek, ruhiy olam mavzusi tugallanmaydigan jarayon bo‘lib, bu borada yana ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur.

Insoniyatning dastlabki o‘lmaslik va boshqa olam haqidagi tasavvurlari Zardushtning jannat va do‘zax haqida yozgan ta’limotlari orqali shakllangan [19, 270]. Zardushtiylikka ko‘ra, o‘lim va yomonlikni keltiruvchi xudo Axrimandir, kasallik va o‘limni yuzaga keltiradi. O‘limdan keyin, Zardushtiylar o‘zlarining vafot etgan yaqinlarini yerga ko‘mmagan, olovda kuydirishmagan yoki

suvga tashlamagan. O'limdan keyin uch kechayu-uch kunduz davomida, marhumning ruhi narigi dunyoga yetib borguncha, maxsus xonada saqlanadi. Bu davrda marhumning yaqinlari va olovdan yuz qadam uzoqlashtirilgan bo'lib, ularning yaqinligi ham cheklanadi. Shu bilan birga, marhumga "nasosalar" (o'limni ifodalovchi xizmatchilar) yordam berishgan. Nasosalar, o'limni shimoldan kelgan pashsha orqali keltirilishini va uni o'likning ruhi yetib borganini aytganlar.

Zardushtiylar dafn marosimlarida mo'badlar va marhumning qarindoshlari uch kecha va uch kunduz davomida duolarni o'qib turganlar. Marosim davomida ovqatlanish va suv ichish man etilgan edi. To'rtinchi kuni, o'likning ruhi boshqa dunyoga uchib ketgach, murda shahar yoki qishloq chetidagi tepaliklarga olib chiqilgan. Bu joyda suyaklari yirtqich hayvonlar va qushlar tomonidan tozalanganidan so'ng, zardushtiylar suyaklarni ochiq qabristonlarda yig'ib, maxsus idishlarda saqlaganlar.

Urxun-Enasoy yozma yodgorliklarida bu kabi marosimlar va maqbaralarning izlari mavjud. Xususan, "Suji bitik toshi" kabi manbaalarda motam bitiklari va "marsiya"lar uchraydi, unda marhumning hayoti, ishlaridan afsus va qayg'u ifoda etilgan [20, 13].

Tarixchi Hamidulla Karamatovning tadqiqotlarida, qadimiy dafn marosimlari o'lkamizdagi diniy va g'oyaviy qarashlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, tiriklar va o'liklar o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. U o'lkamizda uch xil dafn marosimi mavjudligini ta'kidlaydi: yerga ko'mish, tozalangan suyaklarni dafn etish va mayitni yondirish [21, 664].

Ma'lumki, milodiy asr boshlarida dafn marosimlari uchun alohida inshootlar yoki ibodatxonalar qurish odat tusiga kirgan. Xorazmning Jonboz qal'asidan topilgan eramiz boshiga mansub siniq ossuariylar, o'z tuzilishi jihatidan me'moriy inshootlar tarixida alohida o'rin tutadi va ba'zilar dafn ibodatxona qal'asi shaklida qurilgan. Olimlarning fikriga ko'ra, ossuariylar Xorazmning haqiqiy dafn ibodatxonasini aks ettiradi. Ularning ikkinchi qavatida himoya galereyasi mavjud bo'lib, bu dafn marosimlarini amalga oshirish joylari pastki yoki tepa qavatda joylashgan va ajdodlarga sig'inish uchun ibodatxona ham bu hududda o'rnatilgan.

Xulosa qilib aytganda, dafn marosimlari har bir xalqning o'z yaqinlari va ajdodlariga bo'lgan hurmati, izzati hamda turli xil diniy qarashlar silsilasida shakllangan. Zamonlar o'sha davrdagi jahon dinlarining vujudga kelishi, rivojlanishi va insonlarning tabiat hodisalariga bo'lgan qarashlarining o'zgarishi natijasida bu marosimlar transformatsiyaga uchrab, bugungi kunga yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари, I жилд. Тошкент, 1993.
2. Насриддинов К. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Тошкент: Мерос, 1996.
3. Раймонд Монди. Ўлимдан кейинги ҳаёт. – Тошкент, 1992.
4. Stanford Encyclopedia of Philosophy "Death" First published Wed May 22, 2002; substantive revision Wed Mar 13, 2019.

5. Ashirov A.A. O'zbek xalqi motam marosimlarida zardushtiylik izlari // O'zbekiston tarixi, - Toshkent, 2002. № 1.
6. Насриддинов К.Н. XIX аср охири XX аср 80-йилларида ўзбекларнинг анъанавий дафн маросимлари (Қашқадарё вилояти маълумотлари асосида). – Тошкент, 1995.
7. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy / Nasriy bayoni bilan/. – Toshkent, 2009.
8. Payziyeva M. O'zbek etnologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2017.
9. Аширов А.А. Авестодан мерос маросимлар. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халк мероси нашрети, 2001.
10. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/ruh/>
11. Жабборов И. Руҳий олам: жаҳолат ва камолот. – Тошкент, 1988.
12. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/35562-ruhlar-haqida-dinimiz-nima-deydi-ular-chindan-atrofimizda-uchib-yurishadimi.html>
13. Токарев С.А. Ранние формы религии и их развитие. – Москва: Наука, 1964.
14. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/ruh/>
15. Abdullayev U. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
16. Рузиева М. Ҳурмат талаб маросими // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1976. № 6.
17. Payziyeva M. Dafn va ta'ziya marosimlari toshkent o'zbeklari orasida. DIS,- 878/2012.
18. Шониёзов К. Узбеки- карлуки. – Тошкент, 1964.
19. Boyce M. The Pious Foundations of Zoroastrianism// BSOAS. Vol. XXXI. Part II. 1968.
20. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – Москва-Ленинград, 1951.